



Raximova Komila

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zga tilli guruhlarda
o'zbek tili yo'nalishi, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Uahbu maqolada Iqbol Mirzoning "Bonu" asarida milliy identiklik, ya'ni milliy o'zlik, g'urur va iftixor masalalari tahlil qilinadi. Asar qahramoni Bonu orqali o'zbek ayol-qizlarining sabr-toqati, or-nomusi va vatanparvarlik ruhiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bonu, milliy identiklik, milliy o'zlik, milliy g'urur, milliy iftixor, ayol obrazi.

O'zbek adabiyotida ayollar mavzusida qalam tebratmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Ayollarning ichki kechinmalarini tasvirlash juda qiyin masala, chunki ayol tabiatan murakkab yaratilgan shaxs.

Avvalo, yozuvchining ijodiga nazar solsak, sermahsul ijodkor ekanligining guvohi bo'lamiz. 2014-2017-yillarda shoir bilan bir xonada ish faoliyatini yuritgan publitsist, shoira Munira Ramazonova: "Iqbol aka tinib-tinchimas edi. Hayotda ham, ijodda ham hech bir mavzuni chetda qoldirgan emas.

Uning davra suhbatlarida, yosh ijodkorlar bilan uchrashuv jarayonlarida ko'p bo'lganman. Harakatchan, ilmga tashna ijodkor yoshlarni yaxshi ko'rar, erinmay ularga "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz" asarlaridan savollar berib sinar edi". Hozir sevib o'qilayotgan "Bonu" asari ayol-qizlarning bugungi hayotdagi o'rni, yashash tarzi, kechinmalariga befarq bo'lmagan holda xalqqa bir o'rnak asar sifatida yaratilgan.

Siz kitobxonlarga barcha voqealarni aytib bera olmasam-da, hayotning turfa girdoblarini ayol bo'lishiga qaramasdan insoniylikning eng oliy tuyg'ularini buzmasdan, sabr bilan yengib o'tganligi tahsinga sazovor ekanligini aytib o'tmoqchiman. Bonu o'z taqdirida sodir bo'lgan har qanday voqeani yozuvchiga telegram orqali yozib yetkazib beradi. Hech qaysi voqeani yashirmasdan boricha yozib bera oladi, yozuvchini kitob chiqarishga undaydi. Bonu o'qituvchi oilada g'am tashvish ko'rmay

beg'ubor bolalik onlarini o'tkazib hayotda qora, g'amli kunlar qachon boshlanib qo'yganligi haqida ko'p o'ylaydi va bu misralarni xayolidan ko'p bora o'tkazadi. Bu misralar sizni ham befarq qoldirmaydi deb o'ylayman. "Hayotingni o'zgartirgay bir inson va bir kalom, o'shal inson sen o'zingsan, endi so'zni top tamom".

Uning hayotida bobosi, otasi, onajonisi unga eng qadrli insonlar bo'lib qoldi, lekin qolganlar qaysidir ma'noda uning qadrini, his-tuyg'ularini, eng beg'ubor damlarini o'z manfaatlarini yo'lida qurbon qiladi. Tug'ishgan akasi bobosidan Bonuga qoldirilgan merosini hech bo'lmasa eslab yurishi uchun ham qoldirmagani, bobo meros narsani saqlab qolish o'rniga o'z nafsini yo'lida ishlatgani unga juda og'ir botadi.

Go'zal Bonuning tanasida oq dog'lar paydo bo'lib uning taqdirini o'zgarib ketishi, sevaman deb yuz o'g'irgan yigiti Olmosning hiyla-nayranglari, uni Rossiyaga ketishi va u yerda garchi unga begona bo'lsa-da, tug'ishganidek mehribonchilik ko'rsatib, unga



yordam qo'lini cho'zib odamiylikning eng ezgulikka yo'g'rilgan jihatlarini ko'rib shukur qilasiz.

Bonu obrazi orqali muallif o'zbek ayolining eng yuksak fazilatlarini - or-nomus, sadoqat, sabr va vatan muhabbatini ko'rsatadi. Bonu hayotdagi og'ir sinovlarga duch keladi, biroq u o'z sha'nini insoniy qadrini yo'qotmaydi. Shu orqali ayol sha'nini millat sha'niga tenglashtiradi.

Bu asarni o'qib, inson o'z taqdirini qay tarafga boshlashi faqatgina o'z qo'lida ekanligini tushunib yetdim. Bir inson taqdirida qanchadan-qancha insonlar ta'siri bo'lishi esa jamiyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

BONU obrazi o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tafakkurida ayolning or-nomusi, vatanga sadoqati va milliy iftixorining timsoli sifatida qaraladi. Ushbu obraz nafaqat badiiy asarlarda, balki xalq og'zaki ijodi, marosimlar, qadriyatlar va ijtimoiy ongda ham chuqur ildiz otgan. "Bonu" tushunchasi ayolning nafosati, odobi, pokligi, matonati va ijtimoiy mas'uliyatini mujassam etib, milliy qadriyatlar tizimining markaziy ramzlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Bonu obrazining milliy ongdagi o'rni ayolning nafaqat oiladagi, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu obraz orqali ayolning ma'naviy go'zalligi, axloqiy mukammalligi, el-yurtga muhabbati va fidoyiligi targ'ib qilinadi. Shuningdek, "Bonu" ideali zamonaviy jamiyatda o'zbek ayolining yangicha qiyofasini - yetuk, ma'rifatli, faol va mas'uliyatli shaxs sifatidagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Bonu" - o'zbek ayolining or-nomusi, sadoqati va milliy g'ururining ramzi bo'lib, qadimiy an'analardan tortib bugungi kunga qadar xalq mentalitetining barqaror asosiy unsurlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bu obraz milliy madaniyat va ma'naviyatni saqlashda, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda, ayol sha'ni va hurmatini yuksaltirishda muhim ma'naviy omil sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iqbol Mirzo "Bonu" T. 2022 y. 288 -bet.
2. Iqbol Mirzoning hamkasbi Munira Ramazonova bilan 2023-yil 27-oktabrdagi suhbatidan foydalanildi.
3. Turakulova O. AI in textual analysis: unlocking patterns in literary works. International Conference on Frontier Technologies and Solutions (ICFTS-2025)